

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



Ro'yxatga olindi: №BD-60112400114
2024-yil "

MUSIQA NAZARIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	– San'at va gumanitar soha.
Ta'lim sohasi:	210 000	– San'at
Ta'lim yo'nalishi:	60211900	– Xalq ijodiyoti: (ashula va raqs, folklor va etnografiya);
	60112400	– Professional ta'lim : 60211900 - Xalq ijodiyoti: (cholg' u ijrochiligi), (vokal ijrochiligi);
	60211900	– Texnogen san'ati: Kino, televide niye va radio ovoz rejissorligi

Fan/modul kodi MN20014	O'quv yili 2024/2025	Semestr 1-2	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili o'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 2		
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Musiqqa nazariyasi	60 soat	60 soat	120 soat
I.Fanning mazmuni “Musiqqa nazariyasi” o'quv fani oldiga qo'yilgan maqsad – talabalarga musiqiy nazariy asoslarini mukammal o'lashtirish, uning tashkil etuvchi barcha lementlari haqida bilimlarni berish, musiqiy matnlarda tovushlarning bir-biri bilan qanday qonuniyat asosida bog'langanligi o'rgatish, talabalar notalarni erkinn ravishda tezroq o'qish bilan bir qatorda ularni fortepiyanoda mustaqil topa bilish va taxlii eta didlish ronikmalarini hosil qilishdir. Bularning barchasi birinchi o'rinda talabada musiqiy qobiliyatini va musiqiy savodini oshirishga qaratilganligini ayтиb o'tish joiz. Musiqadagi ifoda vositalari - kuy, lad, garmoniya, ritm, metr, tembr, temp, dinamika, faktura, diapazon, registr - berib o'tiladi. Ushbu fan orqali talabalar notalar bilan erkin ishlay olishi va ularni amalda joriy qilinishi asosiy vazifalardan biri sifatida hisoblanadi. Mazkur fanning asosiy mazmuni musiqqa nazariyasining barcha jabhalari bo'yicha savodxonlikni oshirishga qaratilgan. Musiqiy qobiliyat bilan bog'liq ushbu fan nazariy ma'lumotlar bilan birligida ko'proq amaliy mashg'ulotlar asosida olib boriladi				
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
1-mavzu. Tovush. Tovushlarning xususiyatlari “Musiqqa nazariyasi” fani asosini tashkil etuvchi tovushlarningtani hosil bo'lish xususiyarları haqida ma'lumot berib o'tish. Musiqqa – nafis san'at turlaridan biri ekanligi. Musiqanening boshqa san'at turlari bilan bog'liqligi. Musiqqa bayoni va ifoda etish vositalari musiqi unsurlari deyilishi haqida. Musiqadagi ifoda vositalari- melodiya, lad, garmoniya, metr, ritm, tembr, temp, diapazon, faktura, registr, dinamika- berib o'tiladi. (Ilova 1) Musiqqa nazariyasi kursi talabaga musiqaga oid tekstlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam berishi to'g'risida. Shu bilan birga ushbu kurs musiqiy til unsurlari haqidagi asosiy tushunchalarini; musiqqa savodi va atamalarni hamda musiqiy matnini elementlar tahvilini o'zlashtirilishini maqsad qilib qo'yan. Tovush va uning xususiyatlari.				
2-mavzu. Musiqiy tizim. Tovushlarning harfsiy tizimi. Asosiy pog'onalar va ularning nomlari Barcha musiqaviy tovushlar majmuasiga <i>musiqiy tizim</i> deb aytildi. Tovushlarning o'z balandligi bo'yicha yuqori tomon yoki quyiga qarab birin-ketin joylashuvi <i>tovushqatorni</i> hosil qildi. Tovushqatorning har bir tovushi uning pog'onasi deb aytilib, har bir pog'ona I (rim raqamida) raqami bilan ifodalanadi.				
Musiqaviy tizim tovushqatorining pog'onalarini asosiy va hosila pog'onallarga ajraladi. <i>Asosiy pog'onalar ettita</i> bo'lib, ular alohida nom bilan yuritiladi (do, re, mi, fa, sol, lya, si). Ushbu tovushlar lotin alifbosida quyidagicha ifodalanadi.				
3-mavzu. Nota yozuvi. Kalitlar. Alteratsiya belgilari Nota yozuvi – musiqiy tovushlarining balandligi, uzunligi va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi belgilardan iborat yozuv usuli bo'lib, musiqiy yozuvida qo'llaniladi. Nota yozuvi kadimdan turli xalqlar musiqqa amaliyoti va ilmiy izlanishlarning mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Nota yozuvining asosiy unsurlari (elementlari) – nota yo'lli, notalar va kalitlardir. Kalitlar. Nota yo'larida qariyb barcha balandlikdagi tovushlarni aniq balandligini				

- V. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:**
4. • interfaol aqiy hujum;
• mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;
• taqdimotlarni qilish;
• jarayonga asoslangan metod.
5. **VI. Kreditlarni olish uchun talablar:**
Musiqiy tizim, nota yozuvi, xalq musiqqa laddari. o'Ichovlar, ritm, mert, major va minor tonalliklari, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar, intervallar, akkord, septakkordlar. va ularning turlari, (D7, DVII7, SII7) alteratsiy, xromatizm. xromatik gamma, modulyatsiya, og'ishma, transpozitsiya, kuy va uning tuzilishi. musiqiy bezaklar mavzularini to'liq o'lashtirish lozim. Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun berilgan amaliy vazifa va topshiriqlarni plagiarismga yo'l qo'ymasdan bajarish hamda o'z vaqtida topshirish.
- Asosiy adabiyotlar
1. Arzibayeva Z.I., Turganova N.M. Musiqqa nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Turon Iqbol” nashriyoti, 2018. – 126 b.
 2. Raximov Q. Musiqaning elementlar nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2006. – 160 b.
 3. Trigulova A.X., Urmanova L. A., Ibroximjanova G.A. “Musiqqa nazariyasi”. – T.: TDPU nashriyoti, 2013. – 186 b.
- Qo'shimcha adabiyotlar
1. Ibragimov O., Yunusov R., Solfedjio. O'quv qo'llanma. – T.: “Og'a Xon Xalqaro madaniyat jamg'armasi” AKMIKAning Markaziy Osiyodagi musiqqa ijodiyoti sohasidagi tashabbusi nomli dasturi asosida chop etilgan, 2004. – 200 b.
 2. Raximov Q. Musiqaning elementlar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami – T.: O'zbekiston, 2006. – 425 b.
 3. Ibragimov O., Kamalova D., Solfedjio. O'quv qo'llanma. – T.: Turon-Iqbol. 2018.
 4. Rajabova N. Solfedjio. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti. 2000. – 150 b.
 5. Akbarov I. Musiqqa lug'ati. – T.: “Adabiyot va san'at” nashriyoti. 1997. – 220 b.
 6. Vaxromeyev V. Muzikaning elementlar nazariyasi /Maxsus muharrir T.Gafurbekov, O'zbekcha ikkinchi nashri. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 1980. – B.225.
- Axborot manbalari
1. www.zyonet.uz
 2. www.uzbeknavo.uz-
 3. www.uzbekteatrskm.uz
 4. www.muz-urok.ru
 5. www.compozitor.spb.ru/
 - 6.
7. **O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**
- Fan/modul uchun mas'ul:
8. D.M.Mullajonov - O'zDSMI, “San'atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi.
- G.M. Xudoyev - O'zDSMI, “San'atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi prof.v.b., san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
9. Taqrizchilar:
- N.M.Turg'unova – O'zDSMI, “San'atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori;
- G.A.Tursunova – O'zDK, “Musiqqa tarixi va tanqid” kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari doktori (*turdosh OTM*).

	<p>16.Ohangdosh va noohangdosh intervallar.</p> <p>17.Akkord. Asosiy uchtovushliklar.</p> <p>18.Septakkordlar.</p> <p>19.Dominant septakkord.</p> <p>20.Yetakchi septakkordlar.</p> <p>21.Ikkinchi pog'ona septakkordi.</p> <p>22.Alteratsiya. Xromatizm.</p> <p>23.Xromatik gamma. Major va minor turlari.</p> <p>24.Modulyatsiy. Og'ishma. Transpozitsi.</p> <p>25.Kuy va uning tuzilishi. Musiqiy bezaklar.</p> <p>III. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar</p> <p><i>Mustaqil ta'lif uchun tavsya etiladigan mavzular:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tovush. 2. Musiqiy tiزم. 3. Nota yozuv. 4. Xalq musiqa ladlari 5. O'lechovla. 6. Ritm. 7. Sinkopa. 8. Temp. 9. Temperatsiyalangan soz. 10. Turg'un va noturg'un tovushlar. 11. Tabiiy major va minor. 12. Parallel va nomdosh tolalliklar. 13. Intervallar. 14. Diatonik intervallar. Xarakterli intervallar. 15. Xromatik intervallar Engarmonik teng intervallar. 16. Ohangdosh va noohangdosh intervallar. 17. Akkord. Asosiy uchtovushliklar. 18. Septakkordlar. 19. Dominant septakkord. 20. Yetakchi septakkordlar. 21. Ikkinchi pog'ona septakkordi. 22. Alteratsiya. Xromatizm. 23. Xromatik gamma. Major va minor turlari. 24. Modulyatsiy. Og'ishma. Transpozitsi. 25. Kuy va uning tuzilishi. Musiqiy bezaklar. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish hamda audio va video yozuvlardan ijodiy foydalamanish tavsya etiladi</p> <p>IV. Fan o'qitishning natijalari (Shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> musiqaning elementlar nazaraiy jihatlarini o'rghanish, musiqiy <i>tafakkurga ega bo'lishi</i>; xalq ladlarini to'g'ri tuzish va musiqiy namunaga qarab aniqlay olish, o'chovlari turlarini va ularning urg'u tushadigan hissalarini aniqlay olish, intervallarni to'g'ri tuzish va tahlil qilish, major va minor tizimini mukammal bilish, uchtovushlik, septakkordlar va ularning aylanmalari tuzish, musiqiy namunalarni mustaqil tahlil qila olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; musiqiy asarni tinglab, uning badiiy darajasiga estetik baho berish, fanni o'qitish jarayonida oлган bilimlarini tanlagan kasb yo'naliшiga tadbiq eta olish, xurofotni targ'ib etuchchi turli xil oqim va soxta bilimlarga qarshi qo'llay bilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
3.	<p>ifodalashda kalitlar muhim o'rinn tutadi. Kalit deb – nota yo'lining har bir chizig'iда yozilgan notalar balandligini qamrab oluvchi belgiga aytildi. Bugungi kungacha kalitlarning uch turidan foydalaniadi: <i>Sol</i> kaliti (skripka yoki soprano kaliti ham deyiladi) - birinchi oktavada ikkinchi chiziqda joylashgan <i>sol</i> tovushini ifodalaydi.</p> <p>4-mavzu. Xalq musiqa ladlari</p> <p>Xalq musiqa ladlari. Xalq musiqa ijodida uchraydigan ladlar to'g'risida. Xalq qo'shiqlarida ikkita va uchta, to'rt, besh, oltita tovushdan tuzilgan misollar ham uchrashi haqida. Ushbu darsda o'zbek xalq ijodidan foydalaniib, qo'shiqlarni lad nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin. Diatonika tushunchasiga izoh. Xalq musiqasida ketma-ket kelgan va turli diatonik pog'onalaridan tuzilgan yetti pog'onali ladlar haqida. Diatonik xalq ladlarining major va minor gammalaridan farqli tomoni. Ioniy, lidiy, miksolidiy hamda eoliy, frigiy, doriy, lokriy ladlarining ta'rifi va umumiy nota ko'rinishlari.</p> <p>Xalq qo'shiqlarida tovushqatori katta sekundalar va kichik tertsiyalardan tuzilgan besh pog'onali lad – pentatonika xususida. Tabiiy major va tabiiy minordan farqlanuvchi pentatonikalar.</p> <p>5-mavzu. Oddiy metr va o'lechovlar. Oddiy o'lechovlardiagi cho'zimlarning turkumlanishi</p> <p>Musiqa metr deganda kuchli va kuchsiz xissalarini bir maromda almashinib kelishini tushunamiz. Kuchli xissalar o'zgarishsiz takrori musiqada bir maromdag'i ritm xarakatini vujudga keltiradi. Bu xarakat jarayonida mavjud xissalarning ayrimlari ajralib turishini kuzatish mumkin.</p> <p>6-mavzu. Murakkab metr va o'lechovlar. Murakkab taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi</p> <p>Metr turlari takt ichidagi kuchli hissalarning soniga karab aratiladi. Bir kuchli hissaga ega taktlar oddiy metri ifodalaydi. Ikki, uch va undan ortiq kuchli hissaldan iborat taktlar murakkab metr va o'lechovlar tarkibiga kiradi.</p> <p>7-mavzu. Ritm. Cho'zimlarning asosiy va erkin ravishda turkumlanishi.</p> <p>(usullar 2/4.3/4. 6/8)</p> <p>Ritm - bu metr xissalarini o'zaro uyushib kelishi va ularning izchilligidir. «Ritm» so'zi tartibga solingan, to'g'ri uyuştirilgan harakatni bildiradi. Ritm musiqiy ifoda vositalaridan biri buli, kuy tuzilishiда muxsim axamit kash etadi. Tovushlarning o'zaro metrik jihatidan to'g'ri taqsimlanishi natijasida ritm tekistligi ta'minladandi. Har bir kuchli va kuchsiz zarblarning o'zaro bir maromda kelishi ritmnin asosiy mezonidir.</p> <p>8-mavzu. Sinkopa. Sinkopa va uning turlari</p> <p>Ritmik aksentlar takt cho'zimlari orsida eng yirik cho'zimli tovushda paydo bo'ladi. Chunki, davomli tovushlar og'ir, aksenti bor, tayanch tovush sifatida xis etiladi. Mayda cho'zimdagidi tovushlar esa qisqa, yengil bo'lib yirik cho'zimli tovushlarga tomon intiladi.</p> <p>Takt kuchli hissasida kelgan tovushning cho'zimi odatda yirikroq bo'lishi kup kuzatiladi. Bunday holda metr (kuchli hissa) va ritm (yirik cho'zim) aksentlari bir-biriga to'g'ri keladi.</p> <p>9-mavzu. Temp</p> <p>Temp-musiqa asarining belgilangan ijro sur'ati va tezligini ifodalaydi.Ular asosan uch turga ajratiladi. Vazmin templar.</p> <p>10-mavzu. Temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tizimda to'liq belgilanishi</p> <p>Zamonaviy musiqa tizimining har bir oktavasi 12 ta tovushni qamrab oлган tovushlar balandlik bo'yicha bir-biridan tent yarim tonliklar bilan ajratilgan. Bu xildagi sozga 12 ta pog'onali bir tekis temperatsiyalangan soz deb aytildi.</p> <p>11-mavzu. Turg'un va noturg'un tovushlar</p> <p>Turg'un va noturg'un tovushlar musiqiy tovushlarning turli xususiyatlari (balandlik, cho'zim, qattiqlik, tembr) va o'zaro ta'siriga ko'ra kuyning jonli harakati namoyon bo'ladi. Shuning uchun, tovushlar o'zaro bir tartibda uyg'unlashgan holda bo'lishi muhim.</p>

12-mavzu. Tabiiy major va minor

Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o'zaro aloqalarini tizimiga lad deyiladi. Laddagi har bir tovushning roli va harakatining karakteri uning *laddagi funksiyasini* aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funksional munosabatlardan deyiladi.

13-mavzu. Minor ladi tonalliklar

Minor ladi tarkibi (1ton-0,5ton-1ton-1ton-0,5ton-1ton-1ton) asosiy pog'onalaridan tuzilishi natijasida quyidagi tonalliklar va kalit belgilari hosil bo'ladi:

14-mavzu. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar

Kvinta davrasи jadvalidan shuni ko'rish mumkinki, muayyan kalit belgilari soniga bitta major va bitta minor tonalliklar muvofiq keladi. Masalan, *Fa-major* tonallikka *re-minor* tonallik, *Re-majorga si-minor* muvofiqdir. Har bir major tonalligi uchun uning pog'onadosh minor tonalligini topish uchun asosiy major tonallikdan 1.5 ton (kich 3) pastga harakat qilishning o'zi kifoya.

15- mavzu. Intervallar. Son va sifat miqdori

Interval ikki tovushning oralig'idagi masofaga aytildi. Ikki tovush ijro etilishi va eshitilish holatiga ko'ra garmonik va melodik intervallarga ajratiladi.

Intervallarning birin-ketin eshitilishi *melodik*, bir vaqtning o'zida eshitilishi esa *garmonik intervallarni* hosil qiladi. Intervalning joylashuvida quyi tovush uning *asos*, yuqorigi tovushi esa *chuqqisi* deyiladi

16-mavzu. Diatonik intervallar. Xarakterli intervallar

Diatonik *lad* pog'onalarini tarkibida hosil bo'lgan intervallar *diatonik intervallar* deyiladi. Ular tabiiy major va tabiiy minor tarkibida hosil bo'lgan intervallardir.

17-mavzu. Xromatik intervallar. Engarmonik teng intervallar.

Xromatik interval deb orttirligan va kamaytirligan intervallarga aytildi. Xromatik intervallar tarkibiga - ort.4 va kam.5 uchtonliklar mansub. Biroq xarakterli ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar bundan mustasnodir.

18-mavzu. Ohangdosh va noohangdosh intervallar

Diatonik intervallar o'zinin garmonik yangrashi sifati bo'yicha konsonans (oxangdosh) va dissonans (nooxangdosh) intervallarga ajraladi.

19-mavzu. Akkord. Uchtovushlik

Bir necha tovushlarni bir vaqtida uyg'unlashib kelishi natijasida akkord hosil bo'ladi. Akkordalar interval tarkibi va ularning soniga ko'ra turlicha guruhlarga ajratiladi. Tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uchta tovush izchilligiga uchtovushlik deb aytildi. Agar tovushlar soni to'rtta bo'lsa, sepakkord, beshta bo'lsa nonakkord deb yuritiladi.

20-mavzu. Asosiy uchtovushliklar va ularning aylanmalarini

Uchtovushlik-tersiya bo'yicha joylashgan uchta tovushdan iborat akkorddir. Uchtovushlik chekka tovushlari kvintani hosil qiladi. Belgilanishi - $\frac{5}{3}$.

Katta va kichik tersiyalar yordamida uchtovushlikning to'rtta xili tuziladi. Ulardan ikkitasi *konsonans* ohangiga ega bo'lib, har xil tersiyalardan iborat va chekka tovushlari sof kvintani hosil qiladi.

21- mavzu. Septakkordlar. (D7)Dominantseptakkord

Septakkord - tersiya bo'yicha joylashgan to'rtta tovushdan iborat akkorddir. Septakkordning chekka tovushlari septima intervalini hosil qiladi. Shuning uchun barcha septakkordlar dissonans akkord deb hisoblanadi. Belgilanishi - 7. Septakkordlar ham tarkibiy intervallari bo'yicha farqlanadi. Chekka tovushlardagi septimasining sifatiga qarab katta, kichik, orttirilgan va kamaytirligan *septakkord turlari* ajratiladi.

22-mavzu. (D7) Dominantseptakkord aylanmalarini va echilishi

Musiqada juda keng tarqalgan kichik minorli septakkord *tabiiy major va garmonik minoring V-* pog'onasida tuziladi. Bu akkord *dominantseptakkord* deyiladi.

Dominantseptakkord laddagi dominanta funksiyanining asosiy ifodalovchisidir. Belgilanishi - *D7*, uni tashkil qiladigan pog'onalar - *V-, VII-, II-, IV-*, interval tarkibi - *kat.3+kich.3+kich.3*.

23-mavzu. Yetakchi septakkordlar VII,

Yetakchi septakkor dturlari. Ladning *VII-* ya'nı pastki yetakchi pog'onasida tuziladigan septakkord *yetakchi septakkord* deyiladi. Yetakchi septakkord ladning dominanta guruhiga mansub bo'lib, belgilanishi - *DVII7*. Uni tashkil qiladigan pog'onalar -*VII-, II-, IV-, VI-Tabiiymajorda* yetakchi septakkordning chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi, uning asosida esa kamaytirligan uchtovushlik joylashadi. Shuning uchun unga kichik kamaytirligan yetakchi septakkord, qisqarrog'i *kichik yetakchi septakkord* deyiladi.

24-mavzu. II pogo'na septakkordi (SII7)

(Subdominantseptakkord). Ladning yuqorigietakchi pog'onasida (II-) tuziladigan septakkord subdominanta guruhiga kiradi va ushbu funksiyanining asosiy septakkordi hisoblanganligi sababidan *subdominantseptakkord* deyiladi. Belgilanishi - *SII7*, uni tashkil qiladigan pog'onalar - *II-, IV-, VI-, I,*

25-mavzu. Alteratsiya. Xromatizm

Alteratsiya keng ma'noda tovushqatorning asosiy pog'onalar balandligini har qanday o'zgartirilishi - yarim ton yoki bir tonga ko'tarilishi yoxud pasayishiga aytildi. Alteratsiya tushunchasini o'ziga xos ma'noda *lad alteratsiyasi* (yoki laddagi alteratsiya) va *modulyatsion alteratsiya* haqida gap ketayotganda qo'llaniladi.

26-mavzu. Xromatik gamma. Major va minor turlari

Xromatik gamma birin-ketin keladigan yarim tonliklardan tarkib topadi. Xromatik gamma mustaqil *ladni* hosil qila olmaydi. Uning negizi major yoki minor gammasi hisoblanadi. Xromatik gamma bularning murakkab turidir. U major yoki minor tabiiy gammalaridagi bir tonlik oraliqlarni xromatik tovushlar yordami bilan tuldirishidan hosil bo'ladi.

27-mavzu. Modulyatsiya. Og'ishma. Transpozitsiya.

Tonalliklar qarindoshligi. Musiqaviy asar qismining biror yangi tonallikka o'tilishi tonallik bilan tugallanishi xollarli *Modulyatsiya* deyiladi. Ko'p xollarda modulyatsiya musiqaviy tuzilmaning oxirida yuz beradi va albatta u tasodifiy alteatsiya belgilari paydo bo'lishi bilan xamrox bo'ladi.

28-mavzu. Kuy va uning tizilishi. Musiqiy bezaklar

Kuy - metoro-ritm va lad jihatidan tashkil kilingan, biror bir musiqaviy fikri ifodalovchi, bir xildagi yoki turlicha balandlik va cho'zimdagи tovushlarning bir ovozli shakldagi ketma-ketligidir.

II. Amaliy mashgulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1.Tovush.
- 2.Musiqiy tizim.
- 3.Nota yozuvni.
- 4.Xalq musiqi iadlari.
- 5.O'ichovlar.
- 6.Ritm.
- 7.Sinkopa.
- 8.Temp.
- 9.Temperatsiyalangan soz.
- 10.Turg'un va noturg'un tovushlar.
- 11.Tabiiy major va minor.
- 12.Parallel va nomdosh tolalliklar .
- 13.Intervallar.
- 14.Diatonik intervallar. Xarakterli intervallar.
- 15.Xromatik intervallar Engarmonik teng intervallar.